

JADID MUTAFAKKIRLARINI XALQ MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI

Tuxtanazarov I.I

FarDU Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati maorif, san'at va matbuot sohalari orqali millat ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'tarishga xizmat qilgani, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash yo'lidagi faoliyati ilmiy asoslarda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy ma'naviyat, usuli jadid, Turkiston, ma'rifat, milliy ozodlik, tarbiya, islohot, milliy o'zlik.

KIRISH

Insoniyat tarixida millat ma'naviyatining yuksalishi hamisha ilm-ma'rifat va ziyolilar harakati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. O'zbekiston tarixida bunday uyg'onish davrining yorqin timsoliga aylangan jadidchilik harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston zaminida paydo bo'lib, o'z davri uchun ulkan ma'naviy-ma'rifiy inqilob bo'ldi. Rossiya imperiyasining mustamlakachi siyosati bir tomondan xalqni erki va g'ururidan mahrum etayotgan, musulmon mutaassibligida dunyoviy bilim va taraqqiyotga qarshilik ruhi avj olayotgan bir paytda jadid mutafakkirlari o'z jonlarini o'rtaga tikib, millat uyg'onishi yo'lida kurash olib bordilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi buyuk ziyolilar nafaqat so'z va qalam bilan, balki maktablar ochib, gazetalar chiqarib, teatr va ilm maskanlarini barpo etib, xalqni ma'rifat sari yetakladilar. Ularning asarlarida ko'tarilgan millat uquvsiziigi, ayollar ta'limi, yoshlar tarbiyasi, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

ASOSIY QISM

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo'lmay, balki hayotdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar mahsulidir. XIX asr boshidan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlandi. O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshlandi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch

vakillari qadim, qadimchilar deb atalgan bo’lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom olishdi. Shu tarzda asr boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o’zining sermazmun va inqilobiy suronliligi, g’oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o’ziga xos yo’nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari Turkistonni o’rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim”ni inkor etgan holda o’lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo’lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qo’shin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma’rifatchilarining Turkiston o’lkasida ma’rifatparvarlik g’oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo’lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o’lkadagi mahalliy xalqning ongiga o’z ta’sirini o’tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffaq bo’lishdi. Aholi orasida mustamlakachilikka qarshi ma’rifatchilik g’oyalari tarqala boshladi, yangi ta’lim-tarbiya shahobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko’plab ma’rifatchilar etishib chiqdi.

Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko’rsatdi. Bular :

maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) matbuot. (gazeta jurnallar).

Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma’rifatli qilish bo’lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg’unlashuvi natijasida, o’zligini, o’z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo’lida katta ishlar qilindi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so’nggi choragida uyg’ongan ma’rifatchilik, ma’rifatparvarlik qarashlarining ta’siri katta bo’ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e’tibor berilsa, marifatparvarlik mafkurasida demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g’oyaviy mazmunini tashkil etganini ko’rish mumkin. Mamlakatda marifatparvarlik g’oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo’lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g’arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo’g’ib qo’yilishi, uchinchidan, millatparvar – fidoiy kishilarning qattiq ta’qib ostiga olingani va ularning qatl etila boshlagani edi.

Jadidchilik harakati vakillari o’zlarining ma’rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o’sha davr uchun dolzarb bo’lgan demokratik g’oyalarni: ilm o’rganish, fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo’lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so’z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat q’urilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish,

milliy g’oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san’atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta’siri ostida o’z milliy qiyofasini yo’qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma’naviy-axloqiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy o’zlikni anglash, milliy ong, milliy tafakkur va diniy e’tiqodlarni mustahkamlash kabi g’oyalarni asos qilib olishdi. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an’anaviy islom dini, shariat asoslari va hadislar ham o’z ta’sir kuchini saqlab turgan ta’limotga suyanishdi.

Jadidchilar o’zlarining ilg’or g’oyalarini xalq o’rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamonaviy ta’lim sistemasini joriy qilish, ilg’or g’arb mamlakatlariga mahalliy yoshlarni o’qishga jo’natish yo’li bilan amalga oshirishga harakat qilishdi. Turkiston ma’rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g’oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o’z aksini topdi. Shu jihatdan o’zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827-1897) «Navodir ul-vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o’z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta’kidlaydi. Ayni paytda, an’anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho – hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san’atning gullab yashnashiga yo’l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo’ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo’lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma’rifatli va yuksak axloq egalari bo’la oladi. Jadidchilik aslida ma’rifatparvarlik harakatining ko’rinishidir. Shuning uchun bu o’rinda masala bayonini ma’rifat va ma’rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlashdan boshlash maqsadga muvofiq bo’ladi.

Ma’rifatning lug’aviy ma’nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma’rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonidir. Ma’rifat so’zining ko’pdagi ma’nosi maorifdir. Ma’rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma’lumotlar majmuasini bildiradi. Ma’rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma’lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya’ni ma’rifatning ma’lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma’lum sohasini, huddi shuningdek matematika, fizika, biologiya, meditsina va boshqalarning ham ma’lum yo’nalishlarini egallanadi.

XULOSA

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida millat ma’naviyatini yuksaltirish yo’lida ko’tarilgan eng ulug’ bayroq bo’ldi. Bu harakat tasodifiy hodisa emas, balki mustamlaka siyosatining og’ir yukini ko’tarayotgan xalqning ichki ruhiy ehtiyoji va tarixiy zaruriyatidan tug’ilgan fidoyilik harakati edi. Jadidlar maorif, san’at va matbuot — uchta asosiy yo’nalish orqali xalq ongini uyg’otishga, milliy o’zlikni saqlab qolishga va zamonaviy taraqqiyotga yo’l ochishga harakat qildilar.

Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy va boshqa jadid mutafakkirlari o’z asarlari, ta’sis etgan maktablari, chiqargan gazeta va jurnallari orqali

nafaqat o'z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham bebaho ma'naviy meros qoldirdilar. Ularning asosiy g'oyasi — ilm-ma'rifat orqali millat ravnaqini ta'minlash, bir tomondan xalqni bilimli qilish, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unligida o'z qadrini anglagan barkamol shaxsni voyaga yetkazish edi.

Bugungi kunda ham globallashuv xurujlari, yot mafkuralar ta'siri va milliy qadriyatlarning eroziyasi kabi muammolar mavjud ekan, jadid mutafakkirlarining merosini o'rganish va keng targ'ib qilish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlaganidek, bu bebaho boylikni qanchalik chuqur o'rganilsa, bugungi kundagi ko'plab savollarga to'g'ri javob topish imkoni shunchalik ortadi. Jadidchilik tarixining saboqlari — millat kelajagi uchun mas'uliyat, ilmga intilish va milliy birlik — Yangi O'zbekiston qurish yo'lida ham muhim ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.06.2019 kungi PQ-4375-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 23.02.2018 kungi 40-coh Qarori.
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O‘zbekiston. 2016.
5. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, O‘zbekiston. 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga murojaatnoma. 2020 yil 24 yanvar.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Toshkent, O'zbekiston. 2020.
9. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
10. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston. 1992.
11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat. 2008.